ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

YOSHLAR ITTIFOQI TASHKILOTINING O'ZBEKISTON YOSHLARI HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Dilnoza Abdumajidovna Sultonova
Toshkent viloyati Chirchiq
davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
dilnozasultanova887@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23152598

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yoshlar Ittifoqi nodavlat-notijorat tashkilotining tashkil topishi, uning faoliyati, maqsad va vazifalari, O'zbekiston yoshlari hayotida tashkilotning tutgan roli, yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borayotgan siyosati masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, Yoshlar Ittifoqi, nodavlat-notijorat tashkilotlar, Yoshlar ishlari agentligi, "Yoshlar kuni", "Yoshlar ittifoqi" stipendiyasi, "Yoshlar mehnat guzarlari", "yoshlar yetakchisi", "Mard o'g'lon", "Kelajak bunyodkori".

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikkka erishgach, yurtimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda, ma'naviy jihatdan yetuk va jismonan sog'lom avlodni voyaga yetkazishda muayyan ishlar olib borildi. Yoshlar masalalariga daxldor bo'lgan dolzarb muammolarni o'rganish, ayniqsa uyushmagan yoshlarni hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun kerakli sharoitlarni yaratish, ularni kasbga yo'naltirish, yoshlarning taklif va tashabbuslarini rag'batlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, chekka hududlarda yashovchi yoshlarning iqtidor va iste'dodlarini ro'yobga chiqarish, ularni turli illat va yot g'oyalardan himoya qilish bugungi kunning muhim masalasiga aylanib bordi. Shu sababli ham ushbu soha faoliyatini tubdan takomillashtirish, bugungi davr talablariga mos ravishda mustaqil fikrlaydigan, har tomonlama barkamol va tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning aqliy va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish zarur edi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, keng jamoatchilik, avvalo yoshlarning taklif va mulohazalarini e'tiborga olish maqsadida, 2017 yil 30 iyun kuni O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida qabul qilingan qarorga mavofiq, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati 2001 yilda tashkil etilgan edi. "Bugun harakat o'ziga juda kam mas'uliyat olmoqda, biz buni to'g'irlaymiz. Asosiy maqsad – tanqid qilish emas, asosiysi muammolarni o'z vaqtida payqash va hal etish" – deya ta'kidlagan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.[1] Aynan shu sana, tashkilot tashkil topgan kun - 30 iyun mamlakatimizda "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi. Bundan tashqari, mamlakatimiz hayotining turli jabhalari rivojiga hissa qo'shgan yoshlar uchun bir qator davlat mukofotlari va unvonlarni ta'sis etish, o'smirlar uchun "Temurbeklar maktabi" tashkil etish takliflari berildi. Qahramon Quronboyev esa O'zbekiston Yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisi etib saylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-son "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" farmoni, shuningdek "O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini

takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" 2017 yil 18 iyuldagi PQ-3138-son qarori, 2018 yil 27 iyunda esa "Yoshlar-kelajagimiz" davlat Dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son farmonlari qabul qilindi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, "O'zbekiston Respublikasi yoshlari kunini belgilash to'g'risida"gi qonun va qonunosti hujjatlari ishlab chiqildi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, yoshlarni tashqi tahdidlar va "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan muhofaza qilish, yoshlarning manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama ko'maklashish va shart-sharoitlarni yaratish maqsadida tuzilgan, yoshlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilot hisoblanadi. Ittifoqqa yuridik va jismoniy shaxslar Ustavda belgilangan tartibga asosan a'zo bo'lish mumkin. Ya'ni, Ittifoqning maqsadini qo'llab-quvvatlash istagini bildirgan,14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida muntazam yashab kelayotgan fuqaroligi bo'lmagan jismoniy shaxslar Ittifoqning a'zosi bo'lishi mumkin. [2] Shu bilan birga yoshlar sohasidagi nodavlat-notijorat tashkilotlari va yoshlar sohasiga oid korxona, muassasa va tashkilotlar hamda ta'sis hujjatlari Ittifoqning Ustav maqsadlari, vazifalari va dasturiy hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa yuridik shaxslar ham Ittifoqqa a'zo bo'lishi mumkin.

Ittifoqning asosiy maqsadi - yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlardagi jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, mamlakatimizni dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish hamda yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlash, yigit-qizlarning ma'naviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy iqtidorlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashishdan iborat.

Yoshlar ittifoqining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mustaqil fikrlaydigan, o'zining hayotiy pozitsiyasi va qat'iy e'tiqodiga ega, jamiyat hayotida munosib o'rin egallash, mamlakatni isloh qilish, yangilash jarayonlarida hal qiluvchi kuch va tayanch bo'lishga qodir yoshlarni shakllantirish, ularning siyosiy madaniyati, huquqiy savodxonligi va huquqiy ongini yuksaltirish;
- uyushmagan yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g'urur va o'zlikni anglash, ro'y berayotgan voqealarga daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish;
- yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning zamonaviy kasblarni egallashga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish;
- iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ilmiy faoliyatlarga jalb qilish;
- yoshlar, xususan uyushmagan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi, ekologik madaniyatni shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb qilish;
- yoshlarni diniy-ekstremistik tashkilotlar va boshqa buzg'unchi g'oyalar ta'siridan, chetdan "ommaviy madaniyat" niqobi ostida kirib kelayotgan salbiy ta'sir va tahdidlardan asrash, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishga ko'maklashish va boshqalar.

NATIJALAR

Ittifoqning tashkiliy tuzilmasiga kelsak, ittifoqning rahbar organlariga quyidagilar kiradi:

- Qurultoy
- Markaziy Kengash
- Markaziy Kengash ijroiya qo'mitasi

- Markaziy nazorat-taftish komissiyasi.

Tashkilotning tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- Ittifoqning Markaziy apparati;
- Ittifoqning hududiy tuzilmalari;
- Ittifoqning mahalliy tuzilmalari;
- Ittifoqning boshlang'ich tashkilotlari;
- Ittifoqning to'liq muassisligidagi yoki qoshidagi korxona, tashkilot va muassasalar, shu qatorda ommaviy axborot vositalari.

Ittifoq tomonidan yoshlarni rag'batlantirish maqsadida bir necha mukofotlar, xususan, yilning eng faol yoshlari uchun "O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi mukofoti", mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faol yoshlar uchun "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni ta'sis etildi. Ta'lim jarayonida a'lo natijalarni ko'rsatgan va faol bo'lgan talabalar uchun to'lov shartnomaning 35 foizini qoplab beruvchi "Yoshlar ittifoqi" stipendiyasi tashkil etildi. Shuningdek, innovatsion va kreativ g'oyalarini tadbiq etishni hohlovchilar uchun "Respublika yosh olimlarining innovatsion loyihalari" grant tanlovi yo'lga qo'yildi. Yoshlarning biznes tashabbuslari, g'oya va loyihalarini qo'llab-quvvatlash, ishsiz yoshlarni mutaxassislik va biznes yuritish ko'nikmalari bo'yicha o'qitish maqsadida Ittifoq qoshida "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi tashkil etildi. Yoshlar o'z biznes loyihalarini amalga oshirishi uchun tijorat banklari tomonidan 7 foizli stavka bilan imtiyozli kreditlar berilishi belgilandi. [3] Bundan tashqari, Prezidentimizning aholi o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish borasidagi tashabbusiga asosan, eng shov-shuvli loyihalaridan biri sifatida "Yosh kitobxon" respublika tanlovining an'anaviy ravishda o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Respublika tanlovida g'olib bo'lganlarga Prezident sovg'asi "Spark" avtomobilining berilishi ko'plab yoshlar uchun motivatsiya vazifasini o'tadi. Yosh oilalarga boshlang'ich to'lovini to'lab berish sharti bilan uzoq muddatli imtiyozli kreditlar asosida "Yoshlar uylari"ni berish tartibi yo'lga qo'yildi. Hududlarda yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida turli ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish shaxobchalaridan iborat bo'lgan "Yoshlar mehnat guzarlari" tashkil etildi. "Fidoyi yoshlar" otryadlari tashkil qilinib, bunda uyma-uy yurilib, yoshlarning muammo va qiziqishlarini o'rganish, ana o'sha hududga diagnoz qo'yish, xulosalar asosida yoshlarning muammosini hal qilib berish yo'lga qo'yildi.

MUHOKAMA

Shuningdek, oliy o'quv yurtiga hujjat topshiradigan abituriyentlar ham Ittifoqning nazaridan chetda qolmaydi. Tashkilotning respublika komissiyasi bergan tavsiyanoma egalarining pedagogika yo'nalishlariga kirish imtihonlarisiz davlat budjeti asosida o'qishga qabul qilinishi belgilab berilgan. Yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida informatsion texnologiyalar (IT) sohasiga yoshlarni qiziqtirib borish, O'zbekistonda aqliy salohiyat orqali yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida Digital Generation loyihasi yo'lga qo'yildi. Loyiha doirasida esa yoshlarning media, raqamli marketing, robototexnika, veb dasturlash, kibersport kabi zamonaviy yo'nalishlarda malakali mutaxassislardan ta'lim olishi ta'minlab berildi. Yoshlar kuni arafasida hududlarda yoshlarning o'z muammolari va takliflari yuzasidan tuman va shahar hokimlari bilan muloqotini ta'minlovchi "Hokim va yoshlar" loyihasi ham yo'lga qo'yildi. Dunyoning turli nuqtalarida ish va o'qish bilan band bo'lgan o'zbekistonlik yoshlar bilan doimiy aloqa va hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida "O'zbekiston yoshlari" umumjahon assotsiatsiyasi ham tashkil etildi. Yoshlar ittifoqi o'tgan vaqt davomida Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qilib, yigit-qizlarning tayanchiga aylanib ulgurdi. Bunda sohaga doir qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Yigit-qizlarning biznes loyihalari uchun "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi tomonidan 28 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratildi. Prezidentimiz

tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning mazmun-mohiyatini yoshlarimiz chuqur anglagan holda uni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda.

XULOSA

Umuman olganda, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan, yuqori natijalarga erishib, tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan yigit-qizlarni rag‘batlantirish maqsadida “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta’sis etildi. So‘nggi yillarda Prezidentimiz sadoqat bilan yonib yashayotgan, bilimli, tashabbuskor, fidoyi yoshlarga mas’uliyatli rahbarlik lavozimlarini ishonib topshirayotgani ham ularning mamlakatimiz taqdiri va kelajagida muhim kuch ekanini anglatadi. Yoshlar Ittifoqi va uning qoshidagi 20 dan ortiq kengash va uyushmalar yoshlarning san'at, adabiyot, ilm-fan, ta'lim, boringki, biznes sohasidagi faolligini ta'minlash uchun ishlamoqda. Tashkilot deyarli har oyda yangi loyihalar bilan media va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilib kelinmoqda. Davlat tomonidan qaratilgan e’tiborga mos ravishda, har bir ota-ona, har bir xonadon, har bir mahalla, bugungi kunda yoshlarimiz ta’lim-tarbiyasini eng asosiy vazifa sifatida bilib, yoshlarni xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli bo’lgan salbiy ta’sirlardan himoya qilish, millat va davlat taraqqiyotini dunyo hamjamiyatiga ko’rsatishga qodir bo’lgan yosh avlodni tarbiyalashi ham qarz, ham farzdir. [4] Zero, inson hayoti odob-ahloq, ta’lim-tarbiya bilan bevosita bog’liq. Shuni unutmaylikki, Yangi O’zbekiston yoshlari – kelajagimiz va istiqbolimiz poydevoridir.

ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so’zlagan nutqidan
2. Yangi O’zbekiston/2021y.23 aprel.81-s.
3. www.gazeta.uz
4. F Muhiddinova. “Yangi O’zbekistonning kelajak yoshlari: imkoniyat va huquqiy kafolat”. T. 2020 y.
5. S.D. Abdumajidovna.Yangi O’zbekistonda yoshlar siyosati masalalari. "Экономика и социум" №9(88) 2021
6. DA Sultonova. Belomor va Moskva-Volga kanallari qurilishida ishtirok etgan o’zbekistonliklar. Academic research in educational sciences 2 (9), 657-662.2021
7. AS Sobitovna, S Dilnoza Abdumajidovna. The Departure of Zahiriddin Muhammad Babur from Movorunnahrand His Policy in Kabul. Development of Science and Technology: A Mechanism for Selecting and Implementing Priorities.2022/1/27, issue/view/2. 94-97.